



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6/1 2024



*гуманитарные науки
естественные науки
технические науки*

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

6/1-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалтақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы суўалық берилген.*

Нөкис

Mirzayeva L.E. Umumta'lim maktablari geografiya ta'limida mediata'lim resurslaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	118
Haytbayeva S. R. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik jihatlari.....	122
Ismoilova D. M. Sinf rahbari o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi.....	125
Mamatova A.M. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyati.....	128
Jabborova O. M., Matupayeva Sh. Z. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati.....	131
Mamatova A.M. Tarbiya pedagogikasi xususiyatlari.....	133
Kurbanov O.E. Magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual asoslari.....	136
Нургизарова З.Б. Мактаб раҳбарининг тарбиявий ишларни бошқаришдаги роли ..	140
Abdumalikov A.I. Mehnat tarbiyasi – ma'naviy tarbiyaning negizi.....	144
Musoyeva A.B. The perspectives of future professionals on improving their research skills through academic writing.....	148
Тожибоева Г.Р. Понятие и задачи педагогической диагностики в начальной школе	156
Jabborova O.M., Toshmurova D.D. Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari.....	159

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rakhimova G.S., Rasulov M.A., Yakubov K.N. Ўзбекистон ССРда табиатни муҳофаза қилишдаги қонунларнинг аҳамияти.....	163
---	-----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Mashrabjonov U. Mental arifmetikaning rivojlanish bosqichlari.....	167
Xurramov O.Sh. Matritsalarini kriptografiyadagi tatbiqlari.....	172
Abduqodirova P.T., Ibaydullayev D. Interfaol usullar bilan python dasturlash tilini o'qitish.....	174
Ismoilov U. Fizika fanini o'qitishda stem yondashuvi va uning asosiy tamoyillari hamda komponentlari.....	177
Egamnazarova S.X. Kompyuter grafikasi fanlarini o'qitish istiqbollari.....	180
Ismoilov E.O. Differensial tenglamalarni mathcad va maple dasturlaridan foydalanib o'qitish metodikasi.....	183
Nortojiyev A.M. Fizikani arxitektura va qurilish fanlariga integratsiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish.....	189
Jurayeva M.N., Abdiraxmonova R.E. Algebra fanini o'qitishda kontekstli topshiriqlardan foydalanish.....	194
Xakimova Yo.T. Informatika va axborot texnologiyalari darslarini 4 "K" modeli asosida o'qitish.....	197
Xurramov O. Funktsiyalar va ularning turli sohalaridagi tatbiqlari mavzusini yoritishda klaster metodidan foydalanish imkoniyatlari va ahamiyati.....	202



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI DIDAKTIKANING AHAMIYATI

Jabborova O. M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Matupayeva Sh. Z.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tayanch so‘zlar: didaktika, raqamli, o‘qitish, o‘qituvchi, san‘at, madaniyat, asos, mazmun, mohiyat, tushuncha.

Ключевые слова: дидактика, цифра, обучение, учитель, искусство, культура, основа, содержание, сущность, концепция.

Key words: didactics, figure, teaching, teacher, art, culture, basis, content, essence, concept.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati, mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari, uning umumiy o‘rta ta‘lim maktablari san‘at va madaniyat yo‘nalishi o‘qituvchilarini tayyorlashdagi o‘rni masalalari tahlil qilib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье проанализированы значение, содержание и специфика цифровой дидактики в подготовке будущих учителей, ее роль в подготовке учителей направления искусства и культуры общеобразовательных школ.

SUMMARY

The article analyzes the importance, content and specificity of digital didactics in the training of future teachers, its role in the training of teachers of art and culture in secondary schools.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturida yosh avlodni o‘z layoqati va qiziqishlari hamda ularning iqtidori darajalariga mos ravishda kasb-hunarli qilish vazifalari belgilangan[1:3]. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tasviriy san‘at va chizmachilik”, “Musiqqa madaniyati”, to‘garaklar vositasida o‘quvchilarning madaniy-dizaynerlik ko‘nikmalarini shakllantirish ishlarini amalga oshiruvchi har tomonlama professional o‘qituvchilarni tayyorlash bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan biridir. Mazkur masala Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini amalga oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu ma‘noda bu o‘rinda e‘tiboringizni ta‘kidlangan o‘quv fanlari bo‘yicha va ularning yo‘nalishlari asosida oliy ma‘lumotli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati masalasi taxliliga diqqatingizni tortamiz.

Raqamli didaktika mazmuni. Ta‘lim nazariyasi va o‘qitish metodologiyasida raqamli didaktika muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, kompyuterli dastur asosida o‘qitishning asoslari, o‘quv materiallari, topshiriqlari va uning o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish bo‘yicha barcha elektron materiallar bir joyda jamlanadi[2:72]. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda maxsus kompyuterli dasturlar va texnologiyalarga asoslangan raqamli didaktikani tayyorlash va uni amaliyotga joriy etish zaruriyat bo‘lib turibdi. Shu ma‘noda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan “Tasviriy san‘at va chizmachilik” hamda “Musiqqa madaniyati” o‘quv fanlari bo‘yicha oliy ma‘lumotli o‘qituvchilarni tayyorlashda oliy pedagogik ta‘lim jarayonida raqamli didaktika texnologiyasini ishlab chiqish va ular asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ham muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha raqamli didaktikaning asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) maxsus kompyuterli dasturda tasviriy san‘at va musiqa madaniyati ta‘lim yo‘nalishining mavzulari, o‘quv materiallari, topshiriqlari va ularni o‘zlashtirishning didaktik indikatorlari ifodalangan majmui o‘quv majmuasini yaratish;

2) yaratilgan majua didaktik raqamli o‘quv materiallaridan foydalanishning texnik, texnologik va metodik mexanizmlarini ishlab chiqish;

3) taqdim etilayotgan majmui raqamli didaktikada ta‘kidlangan o‘quv fanlarini o‘qitish bo‘yicha tushuntirish va ta‘kidlovchi matnlar, mustaqil yo‘naltiruvchi vazifalar hamda bo‘lajak

o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarkib toptiruvchi ishlanmalar yaratish ko'rsatmalarining majmuini ifodalash;

4) ushbu kompyuterli raqamli didaktikadan foydalanish bo'yicha vaqt rejimi, uning qoidalari hamda taqdim etilgan didaktik materiallarni o'zlashtirishning vositalari to'g'risida eng zaruriy metodik tavsiyalarni aks ettirish;

5) bu kompyuterli dastur asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ularning ijodkorlik va pedagogik layoqatlarining uyg'un tarkib topganligini baholash diagnostikasi indikatorlarini taqdim etish.

Aynan mana shunday kompyuterli dastur asosida san'at va madaniyat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha raqamli didaktikani ishlab chiqish hamda u asosda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mexanizmlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu bilan bo'lajak o'qituvchilarning raqamli didaktikadan foydalanish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Chunki jamiyatimizning innovatsion rivojlanib borishi sharoitida raqamli didaktikani o'qitishning barcha yo'nalishlari va sohalariga tadbiiq etish eng muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Tasviriy san'at ta'limi yo'nalishi bo'yicha raqamli didaktikaning xususiyatlari. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning turli imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan tasviriy san'at ta'limi bo'yicha raqamli didaktika va u asosda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha idrok etiladi:

1) kompyuterli dastur asosida tasviriy san'at ta'limi yo'nalishi bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va layoqatlarini rivojlantiruvchi materiallarni tizimlashtirish va joylashtirish;

2) umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan "tasviriy san'at va chizmachilik" o'quv fani darsligining o'quv materiallari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini amaliy shakllantirish tizimlarini ishlab chiqish va dasturda tizimli joylashtirish;

3) kompyuterli dastur asosida ishlab chiqiladigan ushbu raqamli didaktika o'quv materiallarida tasviriy san'at asarlarini yaratish, taxlil qilish va ularning ma'no-mazmunini tushuntirishga oid tasviriy va animatsion o'quv materiallarini joylashtirish;

4) bu raqamli didaktikada tasviriy san'at asarlarini yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar majmusini taqdim etish;

5) o'quv-texnik vositalar imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining va umuman o'quvchilarning ijodkorlik layoqatlarini rivojlantirishga doir mexanizmlarni ifodalash;

6) ushbu raqamli didaktika asosida bo'lajak o'qituvchilarning o'zlashtirganlik va kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash indikatorlarini taqdim etish.

Bunday raqamli didaktik texnologiyani ishlab chiqish va u asosda tasviriy san'at ta'limi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash hozirgi zamon oliy pedagogik ta'lim jarayoni imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi[3:34].

Musiqqa madaniyati ta'lim yo'nalishi raqamli didaktikasining o'ziga xos jihatlari. Bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Musiqqa madaniyati" o'quv fani vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash va ularning estetik madaniyatini tarkib toptirish ishlari eng muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qabul qilingan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bevosita tashabbusi bilan o'rta ta'lim maktablari 10 dan ortiq xalq cholg'ulari bilan bepul ta'minlanish ishlari amalga oshirilmoqda, har bir o'quvchining kamida 2 cholg'uda ijro eta olish ko'nikmasi shakllantirilmogda va musiqqa o'qituvchilariga kamida 3 cholg'uda mustaqil kuy ijro eta olish talabi qo'yilgan. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida musiqqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning raqamli didaktikasini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Mazkur raqamli didaktikaning eng asosiy jihatlarni quyidagilar tashkil qilishi idrok etiladi:



1) kompyuterli dastur asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari "Musika madaniyati" o'quv fani darsliklarining tahlili asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda amaliy imkoniyatlarni ishlab chiqish;

2) bo'lajak o'qituvchilarning milliy musika merosi va jahon xalqlari musika merosining eng muhim didaktik asoslari bilan qurollantiruvchi tizimni mazkur kompyuterli dasturda tizimlashtirish;

3) bo'lajak o'qituvchilarni bolalar musika san'ati, ya'ni bolalar musiqasi, qo'shiqchilik va raqsi ijrochiligi asoslari bilan tanishtiruvchi metodik majmualarni ifodalash;

4) bo'lajak o'qituvchilarning nota savodxonligini rivojlantiruvchi va ularning mazkur kompyuterli dastur asosida masofadan turib o'qitish jarayonini amalga oshirish kasbiy ko'nikmalarini tarkib toptirish hamda ushbu raqamli didaktikadan foydalanish mexanizmlarini taqdim etish.

Bunday maxsus yondashuv va dastur asosida ishlab chiqiladigan raqamli didaktikaga asosan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning bu kabi raqamli didaktika asosida masofadan turib musiqiy ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish hamda o'z malakalarini rivojlantirib borish bo'yicha muhim mexanizmlarga ega bo'linadi[4:7].

E'tibor berilsa, raqamli didaktika va uning yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqiladigan kompyuterli texnologiyalarning nazariy, metodik va amaliy ahamiyati muhimdir. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning turli variativ namunalarini yaratish va ulardan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib jamiyatimizning hozirgi rivojlanish sharoitida quyidagilar muhim pedagogik vazifalar bo'lib turganligini eslatib o'tish bilan cheklanamiz:

birinchidan, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha turli raqamli didaktikalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi;

ikkinchidan, bunday raqamli didaktikalarni ishlab chiqishda ta'lim yo'nalishlarining asoslari qat'iy hisobga olinishi kutilgan samarani beradi;

uchinchidan, mana shunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan raqamli didaktikalar asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarini bugungi kun talablari darajasida kengaytirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. // www.lex.uz
2. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021
3. Jabborova O., Tashpulatova D. ART texnologiya va kreativlik. – Toshkent, 2022

TARBIYA PEDAGOGIKASI XUSUSIYATLARI

Mamatova A.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchi

Tayanch so'zlar: tarbiya pedagogikasi, xususiyat va o'ziga xoslik, nazariya va didaktika, tarbiya va ta'lim, tarbiya va amaliyot.

Ключевые слова: педагогика воспитания, особенность и специфика, теория и дидактика, воспитание и образование, воспитание и практика.

Key words: pedagogy of education, peculiarity and specificity, theory and didactics, upbringing and education, upbringing and practice.

РЕЗЮМЕ

Maqolada Tarbiya pedagogikasi fanining xususiyatlari, uning o'ziga xosliklari va ob'yektlari to'g'risida fikr yuritilgan, mazkur masalalar bo'yicha mualliflarning yondashuvlari taqdim etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрены особенности науки педагогики воспитания, ее специфика и объекты, представлены подходы авторов по данным вопросам.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Кары Ниязий атындагы Озбекстан педагогикалык
илим-изертлеу институтыныц Ж. Орынбаев атындагы Каракалпакстан филиалы

«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

Некие — 2024

Басып шыгыуга жууапкер:
А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспага таярлаган:
А. Тилегенов

Компьютер де таярлаган:
П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мэнзил: Некие кутасы, Ерназар Алакез кешеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkj@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген магалалларга жууап куштарылмайды, журналда ээрияланган макушалардан алынган узин дилер «Мугаллим уэм узликсиз билимлендириу» журна- лынан алынды, деп керсетилиуи шэрт. Журналга 5-6 бет келеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге кабыл етиледу. Мақрлада келтирилген маэлыуматларга автор жууапкер.

Оригинал-макеттен басыуга рухсат етилди 23.12.2024. Форматы 70x100V₈

«Тайме» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шэргли б.т. 31. Нашр. т. Нускасы Буйыртпа №